




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSİYALAR VАЗIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI
IJTIMOIY ISH KAFEDRASI

**"UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA OILA, MAKTAB
VA JAMOATCHILIK HAMKORLIGINI
TAKOMILLASHTIRISHDA
IJTIMOIY ISH KASBINING AHAMIYATI" (FALSAFA
FANLARI DOKTORI, PROFESSOR FARXODJON
TURG'UNBOYEVNING YORQIN XOTIRASIGA
BAG'ISHLANADI)**

Mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
materiallari to'plami

2024-yil 30-may



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOIY ISH KAFEDRASI

**"UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA OILA, MAKTAB VA
JAMOATCHILIK HAMKORLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA
IJTIMOIY ISH KASBining AHAMIYATI" (FALSAFA
FANLARI DOKTORI, PROFESSOR FARXODJON
TURG'UNBOYEVNING YORQIN XOTIRASIGA
BAG'ISHLANADI)**

Mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami

2024-yil 30-may

UDK: 340.347 (575.1)

“Umumta'lim maktablarida oila, maktab va jamoatchilik hamkorligini takomillashtirishda ijtimoiy ish kasbining ahamiyati” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami / Nashrga tayyorlovchilar: B.Tolibov, M.Abduraxmonova, K.Xonkeldiyeva, / Farg‘ona davlat universiteti Ijtimoiy ish kafedrasi. – Farg‘ona., 2024. 579 b.

Mas’ul muharrir: *T.Egamberdiyeva* – Farg‘ona davlat universiteti, pedagogika fanlari doktori, professor

Tahrir hay’ati: *B.Tolibov* – sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

M.Abduraxmonova – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

K.Xonkeldiyeva – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

Taqrizchilar: *T.Matibayev* – sotsiologiya fanlari doktori, professor

B.Karimov – sotsiologiya fanlari doktori, professor

Ushbu “Umumta'lim maktablarida oila, maktab va jamoatchilik hamkorligini takomillashtirishda ijtimoiy ish kasbining ahamiyati” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plamida O’zbekiston ta’lim tizimida ijtimoiy ish kasbiy faoliyatini shakllantirish mexanizmlarini o’rganish, mamlakatimizda kam ta’minlangan oilalarni qo’llab-quvvatlash tizimi samaradorligini oshirish, O’zbekiston umumiy o’rta ta’lim tizimida ijtimoiy ish kasbiy faoliyatini shakllantirish yo’nalishlari kengaytirish, fuqarolarni o’zini o’zi boshqarish organlarida axoli bilan keys menejment asosidagi ijtimoiy ish faoliyatini tashkil etishni tadqiq etish, mamlakatimizda ijtimoiy sohalar iqtisodiyotini tashkil etish va amalga oshirishning dolzarb muammolari bo'yicha maqolalar o’rin olgan.

JAMIYAT IDEOSFERASI YANGILANISHIDA TA'LIM VA TARBIYANING ROLI

Turdiyev Bexruz Sobirovich

Buxoro davlat universiteti, Yurisprudensiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar
kafedrasи dotsenti, f.f.f.d., PhD

b.s.turdiev@buxdu.uz

+998 (91) 448-55-85 (tg: @bekisha)

Annotatsiya: Bugun mamlakatimiz taraqqiyotida ta'lism va tarbiya masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'naliishlaridandir. Bu borada ajdodlarimizning ilmiy merosi Yangi O'zbekistonni qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi bo'lib xizmat qilmoqda. Shundan kelib chiqib, ajdodlarimizning muqaddas orzularini ro'yobga chiqarish maqsadida mamlakatimizda yangi Renessans poydevorini yaratishdek strategik vazifa qilib belgilangan. Mazkur maqola yurtimiz milliy taraqqiyotga erishish yo'lida ilm-fan, ta'lim-tarbiya va madaniyatning roli tahlil etilib, bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: ta'lism, tarbiya, ma'rifat, madaniyat, qadriyat, jadid, kasbhunar, konstitutsiya

Hozirgi zamонавиј dunyoda ta'lism va tarbiya uyg'unligi suv va havodek zarur hisoblanib, har qaysi davlatning taraqqiy etishi insonning bilak kuchi bilan emas, balki tafakkuri bilan ko'proq bog'liqligini ko'rsatib turibdi. Shuning uchun bo'lsa kerak xalqimizda ta'lism va tarbiya masalasi oilada farzand tug'ilishidan boshlanib, uning kamolot yoshiga yetgunga qadar davom etadi. Xalqimiz jahon hamjamiyatiga faqat o'zining moddiy boyliklari bilan emas, avvalo ilm-ma'rifat, ma'naviy boylik yetkazib bergen ne-ne ulug' zotlarning zamini bo'lganligi bilan mashhur.

Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan durdona asarlarida yosh avlodning har tomonlama yetuk, hayotda o'zining munosib o'rnini topishiga xizmat qiladigan yaxlit va uzluksiz tizim mujassam bo'lib, unda xalqimizning ezgu axloqiy fazilatlari, an'ana va qadriyatları ifodalangan. Ayniqsa, diyorimizning Buyuk Ipak yo'li chorrahasida joylashganligi asrlar davomida turli xalqlar va sivilizatsiyalar o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirishga imkon yaratgan. Bunday aloqalar Markaziy Osiyo mintaqasida yangi hayotiy tushuncha va falsafiy qarashlarning, ilm-fan, xususan, tibbiyat, astronomiya, geografiya, matematika, geodeziya va me'morchilik sohalarining, madaniy-ma'rifiy va diniy qadriyatlarning jadal taraqqiy etishiga zamin yaratgan. Natijada, buyuk mutafakkirlarimiz ilm-fan, madaniyat va tarbiya sohasida buyuk kashfiyotlarni amalga oshirib, butun insoniyat sivilizatsiyasi rivojiga o'zlarining beqiyos hissalarini qo'shganlar.

Bugungi yangi O‘zbekiston taraqqiyoti rivojida yosh avlodni har tomonlama barkamol, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq insonlar etib tarbiyalashda ajdodlarimizning aql-zakovati, iroda va matonati barchamiz uchun ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu borada ayniqsa, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamahshariy, Abu Nasr Forobiy, Mirzo Ulug‘bek singari buyuk olimlar, Imom Buxoriy, Imom Termizi, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Abul Mu’in Nasafiy, Najmiddin Kubro kabi ulug‘ ulamolar, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo, Maxtumquli, Abay, Berdaq mashhur shoirlar, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo‘jayev, Abdurauf Fitrat, Ibrat domla, Abdulhamid Cho‘lpox, Abdulla Qodiriy, Ashurali Zohiriy, Hoji Muin va boshqa yana yuzlab ulug‘ insonlarning ta’lim-tarbiya sohasidagi ilmiy meroslari diqqatga sazovor.

Zero, xalqimiz tarixida ma’naviy bo‘hronlar kuchaygan bir vaziyatda aynan bu buyuk siymolar, uyg‘oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san’at namoyandalari, ma’naviyat va ma’rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqib, vatanimiz taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga ko‘tarilishiga harakat qilganlar. Ular yosh avlodni g‘arb ilm-fan yutuqlaridan xabardor qilish bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topishlariga undaganlar.

Ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan boy hayotiy tajriba va ilmiy meros orqali biz bugungi kunda insoniyatni tashvishga solayotgan juda ko‘plab savollarga to‘g‘ri javob topa olishimizga imkon beradi. Shunday ekan, bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetishiga qanot bag‘ishlaydi. Ular xizmatlarini munosib baholash maqsadida yurtimizda Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlash bo‘yicha qaror qabul qilindi. Buyuk matematik va astranom Muhammad Xorazmiy nomini tarixga muhrlash maqsadida Xorazmda uning nomida yangi shaharcha qurilishining boshlanishi, ma’rifatparvar mutafakkirlarimiz g‘oyalarini o‘rganish va rivojlantirish bo‘yicha Prezident qarori qabul qilinishi shuningdek, Buxorodagi tarixiy maskanda Jadidlar merosi davlat muzeyi ochilishi, “Jadid” nomli yangi gazeta tashkil etilishi singari amalga oshirilayotgan va rejalashtirilgan sa’y-harakatlar muhim yangiliklardan bo‘ldi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda yangi Renessans poydevorini yaratishda ilm-fan, ta’lim-tarbiya va madaniyat sohalarida tub islohotlarni amalga oshirish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, “Yurtimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish uchun bizga zamонавији ilm va yana bir bor ilm, tarbiya va yana bir bor tarbiya kerak”¹³⁰. Shu maqsadda hozirgi davning

¹³⁰ Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz //“Xalq so‘zi” gazetasi, 2021-yil 7-noyabr, №238 (8018).

talablaridan kelib chiqib, yurtimizda ixtisoslashtirilgan maktablarning mutlaqo yangicha tarmoqlari, yoshlarni zamonaviy kasb-hunarlargaga o‘rgatadigan yuzlab maskanlar, IT parklar barpo etilayotganligi e’tiborga molik.

Bundan tashqari, mamlakatimizda ta’lim-tarbiya sohasida o‘qituvchi va murabbiylarning jamiyatimiz hayotidagi roli va mavqeini kuchaytirishga oid olib borilayotgan islohotlar diqqatga sazovor. Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 52-moddasida ilk bor o‘qituvchi maqomi alohida belgilanib, “O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma’naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e’tirof etiladi. Davlat o‘qituvchilarining sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi”¹³¹, -deb mustahkamlab qo‘yildi. Ushbu normaning konstitutsiyaviy mustahkamlanishi jamiyat hayotida o‘qituvchilarining mashaqqatli mehnatini munosib qadrlash va rag‘batlantirishiga zamin hozirlaydi.

Shu maqsadda, 2023-yil 30-sentyabr kuni davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 1-oktabr - O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan soha xodimlariga yuborgan tabrigida ta’lim sohasi xodimlarining o‘rtacha ish haqi 2 barobar ko‘paytirilishi, ming nafar tarbiyachi va o‘qituvchilar xorijiy mamlakatlarga malaka oshirish va stajirovkaga yuborish, ularni ishga qabul qilish, malakasini oshirish va toifa berish tizimi ham takomillashtirilishi borasidagi bayonotlari avvalo ta’lim tizimini zamon talablari asosida tashkil etish, o‘qituvchi va murabbiylarning jamiyatimiz hayotidagi o‘rni va ta’sirini kuchaytirishga alohida ahamiyat berilayotganligidan dalolat beradi.

“Oxirgi yetti yilda maktabgacha ta’lim bo‘yicha qamrov darajasini 27 foizdan 72 foizga, oliy ta’limda esa 9 foizdan 42 foizga, oliygohlarimiz sonini 77 tadan 212 taga yetkazishga erishganimiz, hech shubhasiz, eng muhim yutug‘imizdir. Ta’lim-tarbiya sohasida qabul qilgan dasturlarimiz asosida keyingi vaqtida 261 ta yangi o‘rta ta’lim muassasasini qurish, 2,5 mingta maktabni kengaytirish hisobidan qo‘shimcha 700 mingta o‘quvchi o‘rni yaratilganini ta’kidlash lozim”¹³².

Keyingi olti yilda O‘zbekistonda yangi turdagি Prezident maktablari, ijod maktablari, ixtisoslashgan maktablar faoliyati yo‘lga qo‘yilayotganligi, oliy ta’lim tizimini yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish, oliy ta’lim muassasalarimizni ta’lim va ilm-fanning yirik markazlariga aylantirish bo‘yicha progressiv islohotlarimiz jadal davom ettirilmoqda. 2023-2024 o‘quv yilida xorijdan taklif etilgan 500 nafar chet tili mutaxassislarining maktablarimizda faoliyat boshlaganligi, keyingi o‘quv yillarida ularning sonini 3

¹³¹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: “O‘zbekiston”, 2023. -B.21.

¹³² O‘zbekiston o‘qituvchi va murabbiylariga //https://president.uz/oz/lists/view/6702

barobarga oshirilishi, 10-11-sinflarda bir qator fanlarni o‘quvchilarning tanlovi asosida chuqurlashtirib o‘qitishni yo‘lga qo‘yilishi ta’lim-tarbiya sohasidagi muhim yangiliklardandir.

Taraqqiyotimiz dasturi bo‘lmish “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida sizlar bilan birga ta’lim tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha yangi maqsad va rejalarini belgilangan:

birinchidan, maktabgacha ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarning to‘liq qamrovini ta’minlash;

ikkinchidan, umumiyo‘rta ta’lim tizimida “Ta’lim uchun qulay muhit” dasturini amalga oshirish;

uchinchidan, umumiyo‘rta ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish.

to‘rtinchidan, pedagog kadrlar maqomini oshirish, ularning bilimi va malakasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish;

beshinchidan, umumiyo‘rta ta’limni rivojlantirish uchun xususiy sektorni keng jalb qilish;

oltinchidan, professional ta’lim tizimini rivojlantirish orqali o‘quvchilarni zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga o‘rgatish;

yettinchidan, oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish;

sakkizinchidan, oliy ta’lim muassasalari tashkiliy-boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ularning moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash;

to‘qqizinchidan, fundamental tadqiqotlarni zamon talablaridan kelib chiqib yangi yo‘nalishlar bilan boyitish;

o‘ninchidan, iqtisodiyotning eng tez o‘sib borayotgan yo‘nalishlarida amaliy tadqiqotlarni kuchaytirish, “korxona — oliygoh — ilmiy tashkilot” klaster tizimini joriy etish;

o‘n birinchidan, Yosh tadqiqotchilarining ulushini oshirish, ularning ilmiy izlanishlarini qo‘llab-quvvatlash;

o‘n ikkinchidan, barcha yo‘nalishlarda innovatsion faoliyatni keng joriy etish, ilmiy tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash¹³³.

Bularning barchasidan ko‘zlagan maqsadimiz Yangi O‘zbekistonning yangi beruniylari, yangi xorazmiylari, ibn sinolari va farg‘oniylarini kamolga yetkazish, shu orqali jonajon Vatanimizni dunyo miqyosida rivojlangan, tinch, erkin va farovon mamlakatga aylantirishdan iboratdir. Yurtimizda har yili 30-iyun Yoshlar kuni arafasida o‘zining vatanparvarligi, fidoyiligi va mehnatsevarlik fazilatlarini namoyon etib, xalq manfaatlari uchun sadoqat bilan xizmat qilayotgan, Vatanimizning xalqaro maydondagи obro‘-e’tiborini yuksaltirishga va shon-

¹³³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni//Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son.

shuhratini oshirishga munosib hissa qo'shayotgan, mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida faolligi va tashabbuskorligi bilan tengdoshlariga o'rnak bo'layotgan, shuningdek o'qishda va mehnat faoliyatida katta yutuqlarga erishgan yoshlarni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qaroriga muvofiq, "Kelajak buniyodkori" medali hamda "Mard o'g'lon" davlat mukofoti bilan taqdirlanishi an'anaga aylanib ulgurganligi diqqatga sazovor.

Yoshlarga nisbatan bunday e'tibor va ishonch ularning yangicha fikrlashga, yangi-yangi g'oyalarni dadil o'rtaga tashlab, ularni amalga oshirishga undaydi. Shuning uchun hozirgi kunda yosh avlod vakillarining bilim olishi, ilm-fan, innovatsiyalar, adabiyot, san'at va sport sohasidagi iste'dod va salohiyatini yuzaga chiqarishi, ularning jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratilishiga diqqat qaratilayotganligi bejizga emas. Buning amaliy ifodasini respublikamizning har bir hududida yoshlar ta'lim-tarbiyasi, huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi davlat tashkiloti – Yoshlar ishlari agentligi tashkil etilganligi, shuningdek, Yoshlar ittifoqi, uning huzurida o'ttizdan ortiq nodavlat tashkilotlar faoliyat yuritayotganligi misolida ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari respublikamizning barcha shahar va tumanlarda "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi, turli sohalarni qamrab olgan "Besh tashabbus" amalga oshirilayotganligi muhim islohotlarimizdandir.

Xulosa qilib aytganda, bugun mamlakatimizda ta'lim-tarbiya, ilm-fan, ma'naviyat, madaniyat va sport sohalarini rivojlantirish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarimiz Uchinchi renessans poydevorini yaratishga qaratilgan. Bunday islohotlar pirovardida tadbirkor, irodali, mafkuraviy immunitetga ega, mehr-oqibatli, mas'uliyatli, bag'rikeng, huquqiy madaniyati yuksak, innovatsion fikrlovchi va mehnatsevar fazilatli Yangi O'zbekiston buniyodkorlarini tarbiyalash masalasi yotadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom etti-ramiz // "Xalq so'zi" gazetasi, 2021-yil 7-noyabr, №238 (8018).
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: "O'zbekiston", 2023. -B.21.
3. O'zbekiston o'qituvchi va murabbiylariga //<https://president.uz/oz/lists/view/6702>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni//Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son.

	XX asrning 40-90 yillarda farg‘ona vodiysi o‘qituvchilari faoliyatida ijtimoiy ishning tutgan o‘rni	
66	Nurmatova Iroda Akramdjonovna Ta’lim jarayoni va unga qo’yiladigan zamonaviy talabalar	296
67	Burxonov Rasul Ramilovich Umumiy o’rta ta’lim maktablarida o’quvchilarni ijtimoiy foydali mehnatga yo’nalirishn jarayonini loyihalashtirish	300
68	G‘oyibova Sayyora Usmonovna, Abdurahmonova Nazokat Davlatboy qizi Nosog’lom oilalarning milliy-ma’naviy muhiti	305
69	Nurmatova Irodaxon Akramjonovna, Xasanova Dilobarxon Abdumannob qizi Bir jins vakillarining alohida ta’lim olishidagi o’zaro sotsial ta’sirlar	310
70	Sh.Turgunova Raqobatbardosh kadrlarni tarbiyalash: amaliy o‘quv dasturlarining mohiyati	313
71	Mamirov Nasir Nishanovich Dars mashg‘ulotlarini tashkil qilishda ta’lim usullaridan foydalanish	317
72	E.Tursunaliyeva Amaliy mashg‘ulotlar jarayonida bo'lajak ijtimoiy xodimlarning loyihaviy kasbiy kompetentsiyasini shakllantirish	319
73	Sharipova Kamola Gender tenglik tushunchasining ijtimoiy-falsafiy mazmuni	322
74	Ibragimov Jahongir Toshniyozovich, Ergasheva Durdona Kenjaboy qizi Mamlakatimizda ijtimoiy sohalarga qaratilayotgan e`tibor va qilinayotgan ishlar	325
75	Djurayeva Mohinur Qobiljon qizi Islohotlar jarayonida yoshlarning ijtimoiy muammolari	331
76	Ibragimov Jahongir Toshniyozovich, Mallayeva Husnarobonu Botir qizi Ijtimoiy-psixologik asosdagи oilaviy nizolarning sabablari	334
77	Ikromova Saida Bohodirovna Bolalar va yoshlarning ijtimoiy himoyasi va ta’minoti	338

4 SHO’BA

	Abduraxmonova Manzura Manafovna, Karimova Maftuna Karimberdiyevna Ta’lim tizimida bolalarni zo’ravonlikdan ijtimoiy himoya qilishning nazariy asoslari	341
79	Turdiyev Bexruz Sobirovich Jamiyat ideosferasi yangilanishida ta’lim va tarbiyaning roli	346
80	Хакимов Эркин Туйчиевич Сотрудничество семьи, школы и общества в социальной работе как фактор устойчивого развития узбекистана	351
81	Xamdamova Dilorom Tursunalievna, Axmadjonova Shaxnoza Paxlavon qizi “Oila-mahalla-ta’lim muassasasi” hamkorligini amalga oshirish mexanizmlari	356
82	Inatullayev Baxromjon Boqijonovich, Abdurahmonova Nazokat Davlatboy qizi	361